

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI**



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
_____ dots. Musayev A.
“ _____ ” _____ 2012 y.

5141100-o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**Tarixiy dramada badiiy vaqt konsepsiyasi
(Shekspir va Fitrat dramalari misolida)**

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Boboyeva Gulnoza

Ilmiy rahbar: dots. I. Ikromov

Taqrizchi: o‘qituvchi M. Jo‘rayev

**BMI O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI kafedrasi** yig‘ilishining qarori bilan (Qaror №10.
15.05.2012). Himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri v/b f.f.n. Yu.Karimova.

(imzo)

Jizzax-2012

MUNDARIJA

Kirish.....	3 bet
I. Bob.	
Adabiyotshunoslikda vaqt konsepsiyasi talqini	
1.1. Badiiy vaqt va uning adabiyotdagi mavjudlik shakllari.....	10 bet
1.2. Tarixiy dramada vaqt konsepsiyasi	13 bet
II. Bob.	
Shekspir dramalarida makon va zamon dialektikasi	
2.1. Shekspir tarixiy dramalarida vaqt konsepsiyasi.....	18 bet
2.2. Shekspirning «Richard III» dramasida voqeylik va badiiy vaqt munosabati.....	21 bet
III. Bob.	
Fitrat dramalarida makon va zamon munosabati	
3.1. Tarix va zamon talqini.....	22 bet
3.2. Fitratning «Abulfayzxon» fojiasida badiiy vaqt talqini.....	34 bet
Xulosa.....	42 bet
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	50 bet

Mavzu: Tarixiy dramada badiiy vaqt konsepsiyasi
(Shekspir va Fitrat dramalari misolida)

Kirish

Reja.

I. Bob

Adabiyotshunoslikda vaqt konsepsiyasi talqini

- 1.1. Badiiy vaqt va uning adabiyotdagi mavjudlik shakllari
- 1.2. Tarixiy dramada vaqt konsepsiyasi

II. Bob

Shekspir dramalarida makon va zamon dialektikasi

- 2.1. Shekspir tarixiy dramalarida vaqt konsepsiyasi
- 2.2. Shekspirning «Richard III» dramasida voqelik va badiiy vaqt munosabati

III. Bob

Fitrat dramalarida makon va zamon munosabati

- 3.1. Tarix va zamon talqini
- 3.2. Fitratning «Abulfayzxon» fojiasida badiiy vaqt talqini

Xulosa

Kirish

Mavzuning dolzarbligi

Milliy istiqlol tufayli ma'naviy hayotimizning barcha jabhalarida kuzatilganidek, adabiyotshunoslik fanida ham badiiy asarlarni mafkura tazyiqidan holi ravishda ilmiy o'rganish va ularning haqiqiy badiiy qiymatini tiklashga ahamiyat qaratildi. Buning barobarida adabiyot ilmining tarkibiy qisimlari hisoblangan adabiyot nazariya, adabiyot tarixi va adabiy tanqid sohasidagi izlanishlar ham yangicha mohiyat kasb eta boshladi. Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek, «Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi. Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning mehnatini rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotganini badiiy adabiyotimizning mavzulari ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi – yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi»¹. Bu so'zlar taraqqiyotning bosh asosi va omili hisoblangan ilm va ma'rifatga, xususan, adabiyotshunoslik ilmiga ham daxldor.

XX asr tongotarida adabiyotshunoslik fanining shakllanishi va uning yangi ilmiy o'zanda taraqqiy etishida muhim rol o'ynagan Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abduhamid Cho'lpon kabi ijodkorlarning ilmiy merosi istiqlol tufayli tadqiqot obyekti qilib belgilandi. Bu ilmiy

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. O'zbekiston. 2008-yil. 30-bet/

yoʻnalishda ayrim ishlar amalga oshirilgan boʻlsada, bevosita jadid dramaturgiyasi estetikasini jahonning rivojlangan nazariy qarashlar asosida qayta tahlildan oʻtkazish, oʻzbek dramasi imkoniyatlarini jahon dramaturgiyasining eng yuksak namunalari bilan oʻzaro mushtaraklikda qiyosiy nuqtayi nazardan oʻrganishda ayrim yetishmovchiliklar mavjud. Jadid dramasi asos eʼtibori bilan fransuz maʼrifatparvarlik adabiyoti, ingliz dramaturgiyasi nemis estetik qarashlarini oʻzida singdirgan adabiy hodisa deb qaralishga loyiqdir. Chunki jadid dramasi oʻzining eng yaxshi namunalari bilan jahon dramaturgiyasining tamal toshini qoʻygan yunon antik teatri hamda gʻarb uygʻonishining barcha jihatlarini oʻzida mujassam qilgan Shekspir dramaturgiyasi bilan adabiy tur va janrlar poetikasi nuqtayi nazaridan bogʻlangani bugungi kunda sir emas. Shunday ekan, jadid dramaturgiyasining shoh asarlari sanalgan, Fitratning tarixiy dramalarini ingliz tarixiy dramachiligi anʼanalari, xususan, Shekspirning dramatik xronikalari bilan tipologik aspektda oʻrganish, ulardagi mushtarak va oʻziga xos jihatlarni aniqlash hamda bu ulkan dramaturglar ijodi milliy drama taraqqiyotini boyitibgina qolmay, balki drama nazariyasiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazgan jihatlarni aniqlash bitiruv malakaviy ishning ilmiy dolzarbligini belgilaydi. Shuningdek, drama nazariyasida vaqt konsepsiyasi alohida adabiy hodisa, voqea, ilmiy kategoriya sifatida yetarli oʻrganilmaganligidan kelib chiqqan holda ushbu adabiy-ilmiy hodisani nazariy jihatdan asoslash, uning taraqqiyotiga asos boʻlgan tamoyillarni belgilash vositasida oʻzbek dramaturgiyasida vaqt

konsepsiyasi ushbu malakaviy ish tomonidan ilgari surilayotgan dolzarb ilmiy muammolardan sanaladi.

Muammoning o'rganilqanlik darajasi.

Bitiruv malakaviy ishning tahlil obyekti qilib belgilangan Shekspir va Fitrat dramaturgiyasini o'zaro qiyosan o'rganuvchi ilmiy ish yaratilgan bo'lsa-da, jahon dramashunosligida Shekspir asarlarini jiddiy ilmiy tahlildan o'tkazgan fundamental ishlar mavjud. Bular Shiller, Didro, Hegel, F.Losev, A.Anikst. A.Tatarkevich, Y.Borev, V.Y.Xalizev kabi adib va olimlarning drama nazariyasiga doir estetik qarashlari hamda M.Barg, V.Myuller, I.Dubashinskiy, Y. Kornilova, G.Kozensev, M.Morazov, A.Samarin, A. Smirnov kabi rus olimlarining Shekspir dramalari tahliliga bag'ishlangan ishlardir. Shuningdek, Shekspir ijodi va adabiyotda G'arb va Sharq munosabatlarini o'rganishda o'zbek olimlari N.Kamilov, F.Sulaymonov, I.Haqqulovning² risola va maqolalari hamda Fitrat dramaturgiyasi masalalari O.Sharafiddinov, E.Karimov, N.Karimov, B.Nazarov, B.Qosimov, H.Boltaboyev, I.G'aniyev, Sh.Rizayev, Q.Jo'rayev³ ishlarida yoritilgan. Shuningdek, drama nazariyasiga doir I.Abdusamadov, B.Sarimsoqov, D.Rahmatullayeva kabi tadqiqotchilarning nazariy ishlari ham mavjud. Biroq bu ishlar jadid dramaturgiyasining Shekspir asarlari bilan qiyosiy aspektda o'rganishni nazarda tutmagan. Mavzuga yaqinroq kelgan I.G'aniyevning "Shekspir va Fitrat"⁴ maqolasini tilga olish

² Komilov N. Tafakkur karvonlari. – Toshkent: Fan, 1992. – 120-b; Suloymonova G'. Shekspir O'zbekistonda – Toshkent: Fan, 1997. – 151-b.

³ Sharafiddinov O. Fitrat// Yoshlik – Toshkent, 1990 – 5-son. – B. 63-65;

⁴ G'aniyev I. Shekspir va Fitrat // Jahon adabiyoti. – toshkent, 1993 – 3-son. B. 159-162

mumkin. Shuningdek, «Adabiyot va san’atda ritm, makon va zamon» to‘plamini hamda badiiy adabiyotda vaqt kategoriyasiga doir Y.Abutaliyeva tadqiqotini, S.Mirzayeva, A.Nosirov maqolalarini bu sohadagi dastlabki urinishlar sifatida ko‘rsatish mumkin⁵. Biroq ushbu tadqiqotlar dramada vaqt konsepsiyasi singari ilmiy muammoni Shekspir va Fitrat dramaturgiyasini qiyoslash orqali o‘rganishni o‘z zimmasiga olmagan. O‘zbek adabiyotshunosligidagi ana shu ilmiy-nazariy ehtiyojdan kelib chiqqan holda ushbu mavzuga qo‘l urildi.

Mavzuning maqsad va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishdan asosiy maqsad ingliz va o‘zbek dramaturgiyasining yetuk namoyandalari sanalgan Shekspir tarixiy dramalari («Richard III») bilan birinchi o‘zbek tarixiy fojiasi sanalgan Fitratning «Abulfayzxon» asarini qiyosiy aspektda o‘rganish orqal tarixiy dramada vaqt konsepsiyasining o‘rni va rolga oid ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda oldiga quyidagi vazifalar qo‘yildi:

- adabiy asarda badiiy vaqt tushunchasini tarixiy vaqt tushunchasidan farqli jihatlarini aniqlash va badiiy vaqt konsepsiyasini adabiy istiloh sifatida izohlash;
- tarixiy dramada vaqt konsepsiyasining adabiy asar strukturadagi o‘rnini belgilash, uning badiiy imkoniyatlarini o‘rganish;

⁵ Ritm, prostranstvo i vremya v literature i iskusstve. SB. Statey. Otvet. Ped. B.G‘.Egorov. – S.: Nauka, 1974-300B.;

- Shekspir va Fitratning vaqt konsepsiyasi aniq aks etgan «Richard III» va «Abulfayzxon» tarixiy asarlarini qiyosiy tadqiq qilish;

- qiyosiy aspektda o'rganilayotgan dramalar tahliliga o'zaro ta'sir nuqtayi nazaridagina emas, balki komparativistik tahlil imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish;

- Shekspir dramasini o'zbekchaga tarjima qilishda vaqtning konseptual jihatlaridan kelib chiqib tarjima etilganligini aniqlash;

- Fitrat tarixiy dramalari talqinida vaqtni konseptual birlik sifatida qaralmaganligi oqibatida fitratshunoslikda kelib chiqqan nazariy va talqiniy nuqsonlarni aniqlash;

- tarixiy dramada, umuman dramaturgiyada vaqt kategoriyasiga nisbatan konseptual birlik sifatida yondoshuvning nazariy va amaliy samaralarini belgilashdan iborat.

Shekspir tarixiy dramalari, xususan, «Richard III» dramatik xronikasi bilan Fitratning «Abulfayzxon» tarixiy fojiasi malakaviy ishning obykti sifatida belgilanadi. Qo'yilgan nazariy muammoning hal etilishida drama nazariyasi va vaqt kategoriyasi haqidagi mavjud qarashlar ham malakaviy ishning qo'shimcha manbayi sifatida tahlilga tortildi.

Mavzuning yangiligi.

Bitiruv malakaviy ish o'z oldiga qo'ygan nazariy muammoning yangiligi quyidagilarda ko'rinadi:

- o'zbek adabiyotshunoslikda tarixiy vaqt tushunchasi bilan badiiy vaqt tushunchasining ilmiy asoslab berilganligi;

-Shekspir dramalarining boshqa milliy adabiyotlarga munosabatini o‘zaro ta’sir jihatidagina emas, balki komparavistik asosda o‘rganilganligi;

- Fitrat tarixiy dramasi talqinida vaqt konsepsiyasiga asar strukturasidagi bosh omillardan biri sifatida qaralganligi;

- o‘zbek adabiyotshunosligida vaqt konsepsiyasini tarixiy asarlarga nisbatan qo‘llashda erishishi mumkin bo‘lgan adabiy samaradorlik asoslanganligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishni himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- dramada badiiy vaqt tushunchasini nazariy jihatdan aniqlash;

- tarixiy dramada vaqt konsepsiyasining o‘rni va rolini, matn strukturasidagi ahamiyatini belgilash;

- Shekspir tarixiy dramalarida aks etgan mahorat masalalarini ta’minlovchi badiiy omillarni o‘rganish;

- Fitrat «Abulfayzxon» dramasiga vaqt konseptual birligi nuqtayi nazaridan yondoshuvchi samaralarini belgilash;

- qiyosiy adabiyotshunoslikda o‘zaro mushtaraklik va ta’sir doirasidagina emas, komparavistik asosda ish yuritish tajribasini o‘rtaga qo‘yish kabilar.

Malakaviy ish natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, badiiy vaqt mohiyatini nazariy jihatdan o‘rganishga va uning ingliz hamda o‘zbek dramaturgiyasida namoyon bo‘lishini alohida ijodkorlar misolida o‘rgangani uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Bitiruv malakaviy ish natijalaridan kelib chiqadigan umumlashma va xulosalar milliy istiqlol g‘oyasini o‘ziga singdirgan o‘zbek

adabiyotshunosligida vaqt konsepsiyasi va drama nazariyasini tadqiq qilishda, uni yangicha nazariy qarashlar bilan boyitishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, masalaning o'rganilganlik darajasi, ishning ilmiy yangiligi, maqsad va vazifalari ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

I. Bob. Adabiyotshunoslikda vaqt konsepsiyasi talqini.

1.1. Badiiy vaqt va uning adabiyotdagi mavjudlik shakllari

Inson hayotida sodir bo'ladigan har bir harakat, voqea vaqt bilan bog'liq holda kechadi. Vaqt o'tishi, hozir va kelajak tushunchalarini o'z ichida sodir bo'lishi hammaga ayon haqiqat. Badiiy adabiyotda esa bu hodisa birmuncha murakkabroq shakllarda aks etadi, chunki asardagi voqea-hodisalar har doim ham birin-ketin xronologik tartibda sodir bo'lavermaydi. Badiiy vaqt odatda asar personajining xatti – harakati, uning xarakteri va kayfiyati, portreti hamda asar syujet va kompozitsiyasi orqali yuzaga chiqadi.

Badiiy vaqt bilan real (astronomik) vaqtni taqqoslaganda, badiiy vaqtning estetik kategoriyasi sifatidagi xususiyatlarini chuqurroq tasavvur qilishimiz mumkin.

Badiiy vaqt matning ahamiyatli muhim kategoriyasi sifatida asar ichki to'qimasi bilan bog'liq holda murakkab davomiylikka ega bo'lgan davr, zamon va muddat tushunchalarini anglatadi. Badiiy vaqt adabiy hodisa bo'lgani uchun tabiatdagi astronomik vaqtdan jiddiy farq qilib, u yil, oy kun va boshqa o'lchovlar bilan belgilanmaydi. Bir umrlik hayot hodisasini ikki soatlik dramaga joylashtirishning o'zi badiiy vaqt tushunchasining shartli hodisa ekanini anglatadi. Real vaqtni orqaga qaytarib bo'lmaydi, badiiy asarda esa aksincha: uzoq o'tmishga, tarixga yoki kechagi kunga qaytishning iloji bor. Badiiy vaqt dramada makon, zamon, harakat birligidan tizimidan ishtirok etadi. Bunda S.Mirzayeva qayd etgan konseptual vaqt asar voqealarining ob'ektiv reallikdagi fani, tashqi borliqning modeli tarzida namoyon bo'lsa, epik vaqt manbalarda

syujet vaqti (ayrimlarida: fabula vaqti) deb yuritiladi va tarixiy, biografik, tabiiy sotsial-maishiy, sarguzasht xarakteridagi voqealarni tasvirlash davri yoki zamonidan iborat. Persetual vaqt esa peysaj-qahramonlar kayfiyatiga uyg'unlik, hayvonlar va narsa-predmetlarning obraz sifatidagi ishtiroki sifatida reallashadi.

Ayrim manbalarda syujet vaqti birikmasi ham qo'llanilgan. Olimlarning talqinicha, syujet vaqti asar voqealarining doimiyligini aks ettiruvchi vaqt birligi bo'lib, asosiy voqealar tizimini mana shu syujet vaqtini tashkil qiladi¹.

Voqyea davomida o'tkan kuni tunlar, soatu daqiqalar hisobiga kirgazilgan yunon romanlarida barcha voqealar na tarixiy vaqtga va na biografik vaqtiga to'g'ri keladi. Bunday bo'm-bo'sh vaqt o'zidan keyin iz ham qoldirmaydi va bunday vaqt adabiyotshunoslikda avantyur, ya'ni tavakkal vaqt deb yuritiladi. Bunday vaqtdagi tasvirda yuqorida tilga olingan xususiyatlardan tashqari voqealarning ko'pi tasodifiy holatlarda bo'ladi.

O'rta asrlar va uyg'onish davri ritsarlik romanlarini o'rgangan tadqiqotchilar, jumladan, V. Shklovskiyning syujet tabiatiga doir asarlarida mo'jizaviy vaqt tushunchasini uchratamiz².

Shuningdek, M.M. Baxtin ishlarida tilga olingan hodisa «ong oqimi» 90-yillar adabiyotshunoslikgida xotira vaqti tushunchasi ham yuzaga keladi. M. Baxtin asarlarida F.Dostoyevskiy romanlari poyetikasida muhim o'rin tutgan tush vaqti alohida o'rganilgan. Chunki

¹ Dobin E. Syujet destvitelnost. – L.: Sov. Pisatel, 1981 – 97-b.

² Shklovskiy V. Energiya zabljuzdeniya syujet. – M.: Sov. Pisatel, 1981-97-b.

F.Do'stoyevskiyning deyarli hamma romanlarida bunday epizod uchraydi va tush vaqti tarixiy vaqtda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga oldindan ishora qilinishi yoki M.Baxtin termini bilan aytganda «poetik bashorat» vazifasini o'taydi¹.

Ayrim olimlarning asarlarda vaqt va syujet munosabatidan kelib chiqqan holda teatr vaqti tushunchasi ham qo'llaniladi. Chunki zamonning o'zgarishi makonga ham o'z ta'sirini ko'rsatib boradi, ana o'sha bog'liqlik ilmiy adabiyotda xronotop deb yuritiladi.

Adabiyotshunoslikda xronotop nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan M.M.Baxtin yozadi. «Badiiy asarda o'zlashtirilgan vaqt va makoniy munosabatlarning o'zaro aloqadorligi biz xronotop deb ataymiz (so'zma-so'z tarjimasi «zamon-makon»). M.Baxtin asarlarida xronotop mohiyatini badiiy asarning muhim shakllantiruvchi jihati sifatida qaralishi va bu epik hamda dramatik asarlarda ustivor xususiyat kasb etishi bilan vaqt konsepsiyasi badiiy matnning muhim konseptual birligi sifatida qaraladigan bo'ldi. Bu jixatdan XX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan rus va xorijiy olimlarning tajribasi alohida qo'l keladi.

¹ Baxtin M.Problem poyetik Dostoyevskogo – M., 1976-376-b,

1.2. Tarixiy dramada vaqt konsepsiyasi

Bobning «Tarixiy dramada vaqt konsepsiyasi» deb nomlangan ikkinchi faslida dramatik asarlarda, xususan, tarixiy dramada vaqt konsepsiyasining ijod shakllari haqida mulohazalar bayon etiladi.

Dramatizm pafos turi sifatida muallifning o'z asariga munosabatini belgilashda muhit o'rin tutadi, ayni manashu pafos turi drama janrining belgilanishiga sabab bo'ladi. Dramada xuddi epik turdagi kabi voqealar tizmasining yaratar ekan, u qahramonlar harakatini o'zaro aloqadorlikda ko'rsatadi. Shuning uchun tam Gyote dramaturg «rivojlanayotgan harakat qonuniyatiga» bo'ysinishi kerak, degan xulosaga kelgandi¹.

Dramada badiiy asarning asosi va namoyon bo'lishi shakli sifatida harakat yuzaga chiqar ekan, uning makonda yuz berishi bilan birga, o'sha harakat sodir yetilishi uchun sarf etilgan vaqt davomiyligini ham e'tiborda tutishi kerak. Hozirgi davr dramasida klassitsizm roetikasidagi kabi makon, zamon va harakat birligining o'zaro uyg'unligini tashkil etuvchi badiiy butunlikda vaqt (mumtoz dramashunoslik talqiniga ko'ra zamon) tushunchasi turli xil bosqichlarni o'z ichiga olgan holda talqin qilinmoqda. Dramatik asardagi jismoniy vaqt (yuqoridagi manbalarda tilga olingan tarixiy vaqt) va voqeaning mo'ljallangan vaqti, ya'ni tarixiy vaqtning harakati – barchasi badiiy vaqt doirasiga kirib ketadi. Sahnadagi badiiy vaqtning tashkil qilinishi usuli turli asarlarda turlicha kechadi. Hozirgi paytdagi dramatik asarlarda zamonaviy munosabatlar va ularning birligi ko'rsatilayotgan

¹ Gyote. I.V. Obiskusstve. – M.: Iskustvo, 1977-10-b.

harakatdagi voqea bilan hamnafasdir, ya'ni asar voqeasi o'sha zamon munosabatlari timsolida namoyon bo'ladi.

Zamon munosabatlari yerkin va faol ravishda shakllanadi. Badiiy vaqt asar davomida orqaga qaytishi mumkinligi bilan real, individual vaqtdan farqlanadi. Keyinchalik esa vaqt tushunchasi asar syujetining bir bo'lagiga aylanib qoldi va dramada vaqt kategoriyasi haqida so'z yuritilganda, yuqorida tilga olingan syujet vaqtni asosiy birlik sifatida qaraladigan bo'ldi.

Badiiy asardagi, xususan dramadagi vaqt muammosi bilan yigirmanchi asrning oxirgi yillarida tadqiqotchilar jiddiy shug'ullanishga kirishdilar. Endilikda esa badiiy vaqt muommosi keng miqyosda tahlil va talqin qilinmoqda.

Badiiy vaqt bilan ko'pgina san'atshunoslar, faylasufu teatr nazariyotchilari mashg'ul bo'lib, bu narsa hatto sahna bezakchilari va amaliyotchilarning ham befarq qoldirmayapti.

Dramadagi badiiy vaqtning ham xuddi tarixiy vaqt singari qonun-qoidalari mavjud. Dramaturg tomonidan yaratilgan vaqt o'lchovsiz hisoblanib, har bir sahna, har bir epizod o'zining mazmuni, ma'nosi, makoni jihatidan badiiy ahamiyat kasb etadi. Dramatik voqea ortga qaytmaydi, lekin dramaturg muxlisni har qanday tarixiy davr kechinmalarini xuddi hozir sodir bo'layotgandey qilib aks yettirib berishi kerak bo'ladi. Tarixiy vaqtni sahnada namoyon qilish badiiy vaqtni keltirib chiqaradi deyish mumkin, lekin har doim ham bunday bo'lavermaydi, chunki dramaturg asarda xoh o'ttiz, xoh qirq yilni, balki bir asrni aks ettirsin, buning ahamiyati yo'q. XX asrning 30-yillarida

nemis nazariyotchisi va dramaturg Bartol'd Brextning «epik teatr» nazariyasi amaliyotga keng tadbqiq qilinishiga qadar Didro g'oyasi adabiyotda asos sifatida qo'llanib kelindi. Brextning asarlarida fabula hech qanday ahamiyatga ega emasdi, shuning uchun sahnalashtiruvchi rejissyorlar butun bir ko'rinishni olib, uni makon va zamon jihatini o'rganishsa ham rozi bo'lishardi. Drama syujeti qahramonlarning ichki dunyosidagi tuyg'u va kechinmalarning keskin ifoda yetilishi va buning asar voqealariga kuchli ta'siri bilan ajralib turadi. Dramatik asarda ko'rsatilgan voqea sahnadagi vaqtga jamlanishi kerak bo'ladi, chunki voqealarning chegaralangan vaqti bor, ya'ni u ikki (nari borsa uch) soatdan oshmasligi kerak. Shuning uchun sahnadagi qahramonlar tez-tez almashinib turadi va doimo harakatda bo'ladilar, shu tufayligina ko'p voqea-hodisalarni ham vaqt ichida ifodalab berishga yerishiladi.

Dramada syujetlararo ketma-ketlik, ya'ni xronika va konsentrik munosabatlardan tashqari dramaturg mahorati bilan bog'liq nuqtalar tahliliga ye'tibor qaratmoqchimiz. Dramaning asosiy qahramoni Genrix VI atrofida sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida asar orqali ma'lum bo'lishicha, mamlakatni o'z qo'liga olgan tojdor hukmron bu hodisalar kechayotgan zamonga nisbatan ye'tiborsiz. Uni o'z taxti atrofidagi mish-mishlar asosida to'qilgan voqealardan ko'ra tashqi siyosat va tojdorning tarix va sulola oldidagi mas'uliyati ko'proq qiziqtiradi. Tabiiyki, uni mana shu o'zi e'tiborga olmagan makon va zamon ichidagi hodisalar halokatga tortadi.

Agar asar mazmunidan kelib chiqadigan muallif g'oyasini asos qilib olsak, Shekspirning bir necha asarlarining g'oyaviy mazmuni ham mana shu holat bilan bog'liq kechganini kuzatish mumkin.

O'zbek dramalarida ham makon va zamon munosabati o'z o'rniga ega. Manna shu makon va zamon o'z-o'zicha emas, balki unda qandaydir voqea ro'y berishi bilan qimmatlidir. Voqeani harakatlantiruvchi kuch esa dramada, ko'pincha, qarama-qarshiliklar kurashi, ya'ni konfliktdadir. Birinchi o'zbek tarixiy fojiasi hisoblangan «Abulfayzxon» asari ham real voqealarga boy. Unda aks etgan «xronotop»ning muallif yashab o'tgan zamon va makonga munosabatini aniqlash uchun asar qahramonlarining o'zaro suhbatiga murojaat qilamiz. Bo'lib o'tgan voqealarda o'tmish ham, bugungi kun ham, kelajak ham yashaydi. O'tmish hikoya, xotira shaklida kelajak tush, bashorat shaklida ro'y berayotganini asar voqealaridan kuzatish mumkin. Fitratning «Abulfayzxon» dramasida voqealarning tarixiy va xronologik davomiyligini M. Bargning Shekspir haqidagi talqinlariga suyangan holda belgilasak, o'zgacha ko'rinish sodir bo'ladi.

«Abulfayzxon»dagi voqealar besh parda ichida joylashtirilgan. Unda har bir pardada kechgan voqealar tarixan parchada kechgan voqealar tarixan necha yillik yoki oylik voqealarni qamrab olishdan qat'y nazar asosan syujet vaqtini bir kunni tashkil qiladi. Demak, muallif vaqt va harakat nisbatida oddiy yo'l tutgan. Tarixan bir yil ichida (1739-1740) kechgan voqealar bir kunga joylashtiriladi, yana navbatdagi tasvirga olinishi kerak bo'lgan davr voqealari bir kechayu kunduzga joylashtiriladi, shu kabi besh parda davomida besh kunlik hodisalarni

ko'rsatish orqali Fitrat 1739-yildan 1747-yilgacha bo'lgan davirdagi Buxoro xonligidagi keskin mojarolarni berishga uringan. Tarixiy voqealarni tanlashda tam shekspirdan o'zgacharoq yo'l tutgan, ya'ni millat va mamlakat tarixi uchun muhim va tahlikali sanalgan 1739, 1740, 1747 yillardagi ayrim voqealargina tanlab olinib, uning asosida syujet yaratilgan va bundan kelib chiqib syujet vaqti ham besh kun (ya'ni besh parda davomida) qilib belgilangan.

Seziladiki, muallif ushbu o'rinda ehtimol dramaturgik tajribasi yetishmaganida bo'lsa kerak, oddiy vaqt taqsimoti bilan ish ko'rgan va mana shu besh kun ichida millat tarixidagi keskin, burilishlarga boy va fojiali kunlarni bera olganki, shubhasiz, dramaturgning mahorati ayni, mana shu o'rinda ko'rinadi. Fitratning «Abulfayzxon» fojasidagi pardalar o'rtasida ancha voqealar bo'lib o'tganini birinchi parda bilan ikkinchi, uchunchi va boshqa pardalar orasidagi voqealar orqali anglaymiz. Bunday voqealar girdobida «Abulfayzxon saltanati qoyadan jarlikka qarab shiddat bilan qulayotgandek taassurot qoldiradi»¹.

Demak, badiiy vaqt tushunchasi astronomik vaqt tushunchasi bilan aynan mos kelmaydigan badiiy-estetik hodisa bo'lib, u yillar va tarix voqealari tomonidan emas, balki dramaturg tomonidan boshqariladi. Bu jarayonda muallif qahramonlar nutqi va harakatidan asos sifatida foydalangani holda ayrim o'rinlarda remarka, pardalar orasidagi eslatma vositasida o'zi ifoda qilayotgan fikrlar kitobxon yoki tomoshabinga tushunarli bo'lishligini ta'minlashga harakat qiladi.

¹ G'aniyev I. "Abdulfayzxon tarixiy dramasi poetikasi: Filol. Fanlari nomz. Diss. Avtoref. – Toshkent, 1997.-B.11."

II. Bob. Shekspir dramalarida makon va zamon dialektikasi

2.1. Shekspir tarixiy dramalarida vaqt konsepsiyasi

Shekspir dramalarida makon va zamon dialektikasini o'rganish. Falsafiy nuqtayi nazardan vaqtga ta'rif berilganda vaqt borliqning ob'ektiv reallashuv shakli deb qaraladi. Harakatdagi borliq doimo muayyan zamon va makonda mavjud bo'ladi, uning mavjudlik belgilari haqida fikr yuritilganda ham, harakat shakllari talqinida ham vaqt tushunchasiga duch kelamiz. Badiiy vaqt vaqtning boshqa shakl va tiplari singari davomiylikka egadir, bu davomiylik voqealarning davriy davomiyligini tashkil etgan asar fabulasini qamrab oladi. Voqyealar davomiyligi turli mumtoz asarlada makon va zamon birligidan tortib epik ifodalanishgacha, ba'zan bir necha avlod hayotining davrlarini qamrab olishi mumkin.

Borliqning shakli sifatida vaqt o'zluksizdir, chunki borliq doimiy va tugamasdir. U g'oyib bo'lmaydi va boshqattan yaratilmaydi ham. Lekin ob'ektiv borliq hodisalari juda uzoq vaqtni tashkil qilib, u bir qancha individual vaqtlar yig'indisi sifatida gavdalanadi. Shunda asosan, dramada badiiy vaqt ham uzluksiz, ham uzuq-uzuq holda namayon bo'lishi mumkin. Uni uzluksiz, ya'ni to'xtovsiz harakatlangan holatini voqealarning alohida bosqichlarining birligi hosil bo'lganidagina ko'rishimiz mumkin. Bunda ayrim-ayrim voqealardan bir butunlik hosil bo'ladi. Ularda vaqt oqimi ham, xuddi tarixiy vaqt signari bir tamonga, o'tmishdan kelajakka emas, balki ayrim hollarda bugundan o'tmishga qarab harakat qiladi. Maqsad dramaturg uchun zarur hisoblangan voqeani ko'rsatish, uning tarixdagi va insonlar

taqdiridagi o‘rni belgilashdan iboratdir. «Genrix VI» dan boshlangan tarix «Genrix VIII» bilan tugatiladi. Qurol «Genrix VI» to‘g‘risidagi uchta xronikalardan tashqari «Richard III», «Richard II», «Qirol Iogann» va «Genrix IV», «Genrix V»larning ikki qismlari bilan tugaydi. Yuqorida keltirilgan xronikalarni tarixiy tartibda emas, yozilish tartibida ko‘rib chiqish ko‘zlangan maqsadga erishishga yordam beradi. Ularni birlashtirib turgan muhim narsa, bu ham bo‘lsa Angliya tarixining eng xarakterli jihatlaridir. Shekspir «Genrix VI» «Richard III», pesalarda Marlo kabi mamlakat tarixining eng murakkab, sotsial-siyosiy qarashlar jo‘sh urgan davrini tanlaydi va shaxs bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabat masalasini qo‘yadi. Ammo tipik uyg‘onish davri vakili, gumanis Marlo bo‘lsa «Temurlang», «Eduard II» tragediyalarida bu masalani shaxs foydasiga hal qilib o‘z istagi orzusini amalga oshirishga hech qanday to‘siqni pisand¹ qilmagan Temur, Faust kabi obrazlar yaratgan. Shekspir esa birinchi asaridayoq bu masalani mutloq boshqacha jamiyat foydasiga hal etdi. O‘z asarlarida ulardan foydalanadi va tarixga xalq nuqtayi nazaridan qaraydi, uni romantiklashtirmaydi ham, kamsitmaydi ham, jiddiy ob‘ektiv munosabatda bo‘ladi. Ammo tarixiy voqealar va shaxslarni o‘z asarlarida aynan gavdalantirmaydi, avval ro‘y bergan ba’zi voqealarni keyinga, keyingini oldinga suradi, qahramonlar yoshini xarakterini o‘zgartiradi. Shekspir Angliyaning ilmiy tarixini yaratishni maqsad qilib qo‘ymagan, balki tarixiy voqealar haqidagi badiiy asar yaratgan. Shuning uchun ham dramaturg uchun Richard davri voqealarining haqqoniyligi bilan birga, Richardning shaxs

¹ Sulaymonova G‘.Shekespir O‘zbekistonda. – Toshkent: Fan, 1978. – B.44

sifatidagi xususiyatlarini ochish, unga hukmdor sifatidagina emas, balki jonli shaxs sifatida yondoshish birlamchi ekanini qayd etish lozim.

2.2. Shekspirning «Richard III» dramasida voqeylik va badiiy vaqt munosabati

Mutaxassislar asarni «Genrix VI», trlogiyasining davomi sifatida talqin etgan tufayli 1592-1593-yillarda trlogiyadan keyin yozilgan bo'lsa kerak, degan xulosaga kelishgan¹. Xronika 1623-yilda Shekspir to'la asarlari to'plami orqali nashr etilguniga qadar olti marta, undan keyin esa yana ikki marta alohida nashirlarda chop etilgan .

«Richard III» asarining shunchalar ko'p nashr etilishi Angiliya tarixida eng qonxo'r hukmdor sifatida nom chiqargan qurolning zulmlarini hali esidan chiqarmagan xalq o'rtasida pesaning katta muvaffaqiyat qozonganidan xabar beradi. Richard haqida xalq orasida balladalar yaratilgan. Shekspirgacha pesalar ham yozilgan².

«Richard III» xronikasining 1597-yil nashrida asar «tragediya» deb atalgan edi. Haqiqatdan ham, bu pesa janir jihatidan fojiaga yaqin va Shekspirning shoh asarlaridan biri sifatida ko'rinadi. Uning xronikalari orasida eng keng tarqalgani va hozirgacha ham sahnadan tushmay kelayotgani ham «Richard III» dir. Ayrim mutaxassislar antik tarix bilan qiziqib, milliy tarixni o'rta asr sifatida rad etsalar, Shekspir o'z ustozlari xatolarini takrorlamaydi.

¹ Shveder Yu.Istoricheskiye xronik Shekspir/ shekspirovski spornik – 1958.-M.: Iskustvo, 1959. –B 72.

² Istoriya ingliz literatur. – M.: Nauka, 1971. – B. 171

III. Bob. Fitrat dramalarida makon va zamon munosabati

3.1. Tarix va zamon talqini

Fitrat dramaturg sifatida juda katta shuhratga ega bo'lgan. U barcha zamondoshlari tomonidan bu borada yakdillik bilan e'tirof etilgan ijodkor edi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, u o'ndan ortiq dramatik asar yozgan. Fitratning dramaturg asarlari o'z vaqtida ommaviy tirajlarda nashr yetilmagani va faqat sahnaga qo'yilishi bilan cheklangani uchun ularning deyarli yarmi bizgacha to'la saqlanmagan¹. Taniqli yapon turkshunos olimi Xisao Ko'matsu Fitratning mashhur «Temur SAg'anasi», «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari» kabi asarlarini xuddi mana shu «chig'atoychilik faoliyati» bilan bog'lab: «Vatanparvarlik» g'oyalari bilan yog'rilgan bu asarlarning tomoshasiga kelganlar, shu qadar qattiq ta'sirlangan edilarki, ular har safar tomosha so'ngida teatrlardan ko'z yoshlarini oqizib chiqib ketardilar, -degan haqiqatni qayd etadi. Fitratning «chig'atoy gurungi» bilan bog'liq 1918-1920-yillar adabiy faoliyati juda ko'p samara berganini qayd etish mumkin. Fitrat bu yillari ilmiy risola va darslik hamda qo'llanmalardan tashqari «Begijon» (besh pardalik fojia, 1916), «Temur sag'anasi» (1918), «Og'uzxon» (1918), «Qon» (1920), «Abo Muslim» (1921), «Chin sevish» (1920), «Hind ixtilolchilari» (1921) kabi dramatik asarlarni yaratgan.

Fitratning tarixiy mavzuda yaratgan dramalarining taqdiri shoirning o'z taqdiri yoki o'sha asar qahramonlarining qismatidan ham

¹ Boltayev H. Quyoshni kutgan kecha. Fitratning nashr qilinmagan dramalari qismati // Geatr. – Toshkent. 2007, - 3-son. – B.31-33.

fojialiroq. Chunki ularning ko'pchiligi ommoviy tarzda nashr etilmay qolib ketgan, faqat ayrim teatrlar sahnalarida bir necha bor qo'yilgan xolos. Shuning uchun bu asalarning mavzu doirasi va qahramonlar hayoti haqida ayrim mulohazalarni bayon qilishdir. Adabiyotshunoslik o'z ichiga avvalo adabiyot tarixi va nazariyasi, adabiy tanqid va metodologiya masalalarini qamrab olar ekan, birinchi o'zbek professori A.Fitratning ilmiy faoliyatida har uch jabhada jamlanganini ko'ramiz.

O'zbek adabiyoti tarixini izchil ilmiy tizimda tiklashni maqsad qilib olgan Fitrat eng qadimgi adabiy yodgorliklardan tortib to o'z zamonasining ilg'or taraqqiyparvar g'oyalarini tashuvchi jadid adabiyotiga qadar kechgan ulkan davrni tartibga soldi. U ilk turk alloma va shoirlari Mahmud Qo'shg'ariy, Yusuf Xos Hojib (Bolasog'uniy), Adib Ahmad Yugnakiy asarlarining topilishi va nashirga tayyorlanishida faol ishtirok qildi, o'zining «Eng eski turk adabiyoti namunalari», «O'zbek adabiyoti namunalari» kabi majmualarida mumtoz merosimizni ilk bor jamlab chop ettirdi. Mir Alisher Navoiy haqida ilmda birinchilardan bo'lib ilmiy risola va maqolalar yozdi, navoiyshunoslikni jiddiy xatoliklardan xoli etishga yordam berdi. Fitrat birinchi o'zbek nazariyotchisi bo'lgan tufayli san'at va uning mohiyati, kelib chiqishi va turlari, xususan, so'z san'ati bo'lgan badiiy adabiyot haqida jiddiy nazariy maqola va tadqiqotlar yaratdi. «Adabiyot qoidalari», «Aruz haqida», «She'r va shoirliq», «San'atning manshai» tafakkurining shakillanishida muayyan ilmiy vazifani bajardi va shu vaqtga qadar o'z qimmatini saqlab qolmoqda.

Fitratning adabiy-tanqidiy qarashlari o'z zamonasi uchun har bir masalada qanchalik dolzarb xisoblansa, bugungi adabiy-tanqidiy tafakkurning yuksak rivojlangan pallasi uchun ham o'zining juda ko'p jihatlari bilan namuna bo'lishi mumkin. Bundan tashqari «Fitrat va fors adabiyoti mavzusi alohida e'tibor bilan o'rganilishi lozim sohaki, zullisonayn olim va adibimiz ilmiy hamda adabiy salohiyatining juda ko'p no'malum qirralari ana shunda ko'rinadi. Sharq adabiyotining hech bir ulug' ijodkori topilmaydiki, u haqda olim maqola va tadqiqotlarida yuksak tasavvur va ilmiy tayyorgarlik bilan o'z fikrini bildirmagan bo'lsin. Filologiya ilmining tilshunoslik, etimologiya sho'balariga doir olimning kuzatishlar XX asr o'zbek tilshunosligi va folklorshunosligining shakllanishida o'z o'rnini ta'kidlab turibdi. Tarix va falsafa, tasavvur va ilohiyot, musiqa va shaxmat nazariyasi kabi ziyolilarni o'ziga band etgan madaniy jabhalarining har biriga Fitrat ilmda amaliy javob berib, qator tadqiqot risola va maqolalar yaratgan.

«Temur sag'anasi» asari bizningcha, 1918-yilning boshlarida yaratilgan bo'lib, bu asar vositasida Fitrat xuddi avvalgi publisistik asarlari kabi yurtdoshlariga murojaat qiladi, uni o'zligini eslashga bu qorong'ulik va g'aflatdan chiqib ketmoqqa da'vat etadi. Asarda Amir Temurning o'z qabridan tik turib, xalqiga qarata aytgan so'zlari dramaning eng ta'sirli lavhalaridan bo'lgan. Uning so'zlari «Yurt qayg'usi (Temur oldinda)» sochmasidagi shoirning murojaatiga javoban aytilganday tasavvur beradi. Ayrim manbalarda asardan olingan ushbu parchani o'qiymiz: men sizlarga ko'p narsalar yetkazdim, ne bo'ldiki,

bir zamonlar sharaflı va jasur bir millatning zulmi ostida qolmish kimlar boshlaringdan kushlarimni quvmoqda!...

Otalar merosidan nimani oldingiz! Sizdan talab etaman, xalqingiz!... O'lkani kuzatingiz, avlodlarimning hur yashamoqlarini taxmin etingiz. Agar bunday qilmasangiz, o'lka bir buyuk mozorlik xoliga kelur.¹»

Tabiyki, bunday keskin gaplar bilan bosqinchilarga qarshi nafratning ifodalanishi 20-yillarning oxirlaridan boshlab tanqidlarga va adabiy «janjal»-larga sabab bo'lgan.

Hamid Olimjon Fitrat faoliyatiga bag'ishlangan maqolasida bu asarni keskin tanqid qilar ekan shoirning qo'lida asarning biror bir nusxasi bo'lgan deb hisoblash mumkin. Afsuski hozircha «O'zbek teatrining 10 yilligi»ga bag'ishlab e'lon qilingan matbuot materiallaridan tashqari boshqa biror matnga ega emasmiz.

«Abo Muslim» besh parcha, yetti ko'rinishli tarixiy drama. 747-750 yillarda ummaviylarga qarshi kurashib, abbosiylarni hokimiyatga keltirgan qo'zg'olon va uning rahbarlari xurosonlik Abu Muslim (727-755) taqdiridan hikoya qiladi. 20-yillarda sahnaga qo'yilgan. 1921 yil «Turiston» gazetasida (21 dekabr) cho'lponning u haqida taqrizi ham bor. «O'g'izxon» turkiy xalqlarining millodning boshlarida yashagan va ularning markazlashgan hokimiyat–xoqonligini tuzgan shu nomli sarkarda haqida.

«Abo Muslim» dramasi haqida birmuncha tasavvur beruvchi manba va taqrizlar mavjud. Asarning matnini tiklashga ko'mak beruvchi

¹ «Yosh lelinchi» 1935, 10 mart (56-son)

birinchi manba Fitratning 1925-yilli chop qilingan «Muxtasar izlar tarixi» risolasidir. Unda islom tarixidagi burilish davri-umaviylik xalifaligining inqirozi va xurosonlik mashhur afsonaviy qahramon Abo Muslimning kurashlari natijasida xalifalik Payg‘ambarlarimizning ashoblaridan sanalgan abbosiylar qo‘liga o‘tish voqealari² bayon qilinadi. Besh parda, yetti ko‘rinishdan iborat bo‘lgan bu dramaning sahna varianti haqida bir necha taqrizlar e‘lon qilingan. Shulardan dastlabkisi shoir Abdulhamid Cho‘lponning «Qalandar» imzosi ostida chop qilingan taqrizi bo‘lib, unda shunday deyiladi: «Tomosha – aralashguchi qahramonlarning ko‘pligi ham tarixning eng tutashgan davridan olinib yozilgani uchun bo‘lsa kerak-keng ommoga anglashilishi og‘irroqdir. Shuning uchun tomoshaning so‘ngida uning natijasini to‘la ko‘rsaturg‘an bir ko‘rinish ortirilgan. Bu ko‘rinish xiyla muvaffaqiyotli tuzulg‘an... Umuman, tomoshada Fitratga xos so‘z ustaligi xiyla kuchlik. Bu jihatdan tomosha katta bir adabiy ahamiyatga molikdir. Taqrizda ko‘proq asarning mazmuni emas, uning sahna talqini haqida fikr yuritilib tomosha Abror Hidoyatov, Mannon Uyg‘ur kabi mashhur san‘atkorlar ishtirokida «Turon» teatri sahnasida qo‘yilgani qayd yetiladi. II asrda yashagan va o‘ttiz besh yil hukmronlik qilishi natijasida tarqoq turk ulusini birlashtirib, nisbatan markazlashgan xoqonliq yaratgan O‘g‘uzxon (asli ismi Musaxon Teoman o‘g‘li) haqida turk tarixida ko‘plab afsona va rivoyatlar, shuningdek, tarixiy-ilmiy asarlar mavjud. Fitrat qariyb o‘n sakkiz asr avval sodir bo‘lgan voqealarni tomoshabinlar ko‘zi o‘ngida tiriltirar ekan ko‘proq e‘tiborni

² Fitrat. Muxtasar islom tarixi. T.; “Nur”, 1992, 26-b

O'g'uzxonning bahodirligiga, davlatni idora etishda nisbatan taraqqiyparvar yo'l hisoblangan (o'z zamoni uchun albatta) xoqonliq ya'ni markazlashgan davlat qurish yo'lidagi intilishlariga e'tibor berib Buxoroda hamon beklik tizimi (ma'lum hududda bekning istalgan, cheklanmagan imkoniyatlarga ega bo'lishi) xukm surayotgan davrda o'zkaning shonli o'tmishini eslatmoqchi bo'lad.

1921-yili sahnaga chiqqan «Qon» nomli besh pardali fojining taqdiri haqida yana ham mavxumroq tasavvurga egamiz. O'sha davr vaqti matbuoti sahifalarida osilgan ahborotlardan bunday asarning sahnaga chiqqani unda bayon etilgan voqealar yaqin o'tmishdagi hodisalar, ya'ni 1917-1918 yillarga taalluqli ekanini bilamiz xolos. Ayrim tadqiqotchilar Fitratning «O'g'uzxon», «Qon» nomli asarlari umuman sahna yuzini ko'rmagan deydilar. Ushbu asarlar taqdiri qanday bo'lganidan qatt'i nazar, bizgacha matni to'la yetib kelmagan besh sahna asari (avvalroq yaratilgan «Begijon» ham nazarda tutiladi) Fitratning dramaturg sifatidagi iste'dodining qanot yozganini, keyinroq yaratilgan mashhur sahna asarlarining tug'ulishida o'ziga xos tajriba maktabini o'taganini qayd yetmaslik mumkin emas.

«Chin sevish» va «Hind ixtilolchilari» singari sahna asarlari voqealari garchi olis Hindistonda yuz bergan bo'lsa-da, ulardagi voqealar tabiati va qahramonlarning millatning erkin yo'lidagi intilishlari bevosita Turkiston zaminida kechgan voqealar ham yurtdoshlarimizning milliy ozodlik yo'lidagi harakatlari bilan bog'liq. Birinchisiga tam muallif «Hind ixtilolchilari turmushidan olingan 5 pardali ishqiy-hissiy fojiadir» deb izoh beradi. Ixtilolchi –

qo'zg'olonchi degani. Demak har ikki asar ham hind xalqining ingliz istilochilariga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashlari haqida.

Ular bir asarning ikki varianti emas, bir mavzudagi ikki asar. Daslab, «Chin sevish» yozilib, 1920 yilda chop etilgan. Ikkinchisining yozib tugatilgan yilini muallif 1920 deb ko'rsatadi. Uch yil keyin Berlinda bosilgan (o'sha yili o'zimizda ham chop etilgan).

«Chin sevish»ning markaziy qahramonlari Nuriddinxon va Zulayho, uning otasi Karimbaxsh, boyvachcha Rahmatullaxon, ingliz yuzboshisi Vil'yamlardir.

Asar Karimbaxsh uyidagi suhbat bilan boshlanadi. Unikiga boyvachcha Rahmatulloxon kelgan. Boyvachcha Zulayhoga xaridor. Suhbat aylanib, Yevropaga taqaladi. Bularning ko'pchiligi o'sha yoqda o'lib ketganlar. Lekin gap birgina o'qishda emas ekan. Bunday qarashsa, o'qigan ham, qo'yingki o'qituvchining o'zi ham yovuz bo'lishi mumkin ekan. Agar yovuzlik aql va bilim bilan birlashsa to'g'rirog'i aql va bilim yovuzlikka xizmat yettirilsa-chi?!

«Chin sevish» ko'p o'tmay Toshkentda Mannon Uyg'ur tomonidan sahnaga qo'yildi. Cho'lpon u haqida «o'zbek sahnasi ulug' va ulug'ligi qadar yuksak ham go'zal bir tomosha ko'rdi», - deb yozdi. Vadud Mahmud esa, uni «o'zbek sahnasida shu kungacha o'ynalib kelgan pesalarning eng kuchlisi eng buyugi» deb baholadi.

Asarning shuhrati faqat Rossiya musulmonlari orasidagi emas, Turki Erondan, Hindu, Avg'oncha yoyildi.

«Chin sevish»da boshlangan «Hindistonni tozartish» g'oyasi «Hind ixtilolchilari»da davom etadi. Ikki yosh – Rahimbaxsh va

Dilnavoz bir-birlarini sevadilar. Biroq yurtida erk yo‘q. Vatan o‘zgalar oyog‘i ostida. Shu tufayli ular ham erkin emasdir. Bir kuni kupa – kunduzi bosqin qilib, «Hukumatga qarshi yashirin kengashsiz» deb ikki yoshni qo‘lga oladilar. Rahimbaxsh qamoqqa tashlanadi. Dilnavozni Loxur polisi boshlig‘i Okunar ishrat uchun olib ketadi. Raximbaxsh qamoqdan qochib, inqilobchilarga qo‘shiladi. Do‘stlari yordamida Dilnavozni qutqaradi. Biroq inqilobchilarning turgan joylari inglizlarga ma‘lum bo‘lib qoladi. Tengsiz jangda Dilnavoz Bodrinat degan hindi inqilobchi bilan yana dushman qo‘liga asir tushadi. Asar ularning ozod qilinishi hammalarining «Yurtimizni qutqaramiz! Yashasin istiqlol!» degan xitoblari bilan yakunlanadi.

Dramaning qisqacha mazmuni-shu. Lekin undagi har bir sahifa tafsil Vatanga bo‘lgan qizg‘in mehr bilan yorishib turadi.

«Men Hindistonni sevganingcha sevarmisan?» - so‘raydi Dilnavoz. «Hindistonni sevganim seni sevganim emasmi?!» - javob beradi Rahimbaxsh. U yurtini sevadi. Tosh tuproqlari uchun emas, go‘zalligi, fazilati tarixi uchun. Dilnavoz mana shu yurtning. Ulusning fazilatlaridan biri, birinchisi. Shu sabab, Dilnavozning shubha va gumonlariga qarata: «Chindan sevaman, yurakdan sevaman, jondan sevaman, vijdonan sevaman. Mening yuragimdagi sevgini ko‘rsatmak uchun sevisish so‘zi ozdir. Talpinaman senga!» -deydi.

Aslida, ularga ko‘p narsa kerak emas. Hatto birgina narsa-erkinlik kifoya. «Kimsaning bizga hech ishi bo‘lmasin...» - zorlanadi Dilnavoz. Lekin ularning har biri qadamini o‘z uyida ta‘qib yetuvchi

ingliz-chi? Uni yurtidan quvmay, erkin yurib bo'ladimi! Ammo bu oson ish emas.

Ko'rib turibdiki, asar voqealarini faqat va mutlaqo Hindistongagina tegishlidir, degan da'voni hech kim qila olmadi. Bu muammoni mustamlaka va mustamlakachi mavjud har bir mamlakatga daxildor edi. Shu jumladan, Turkistonga ham shu sababli, u haqida o'nlab taqrizlar bosilishi hatto olis Germaniyada maqola chop etilishi va Fitratning mashhur Nusayn Javid bilan yonma-yon qo'yilishi bejiz emas.

«Turkiston va Buxorodagini emas, balki Sharqning boshqa xalqlar ham Fitratni tanlaydilar, - yozgan edi B.A.Pestovskiy 1922 yilda. - Biz musulmon shoirining dunyoga qarashi buddistlarning qarashidan uzoq tursa kerak, degan bir fikr miyaga kelsa ham Fitratning ba'zi bir asarlarida ko'rilgan dunyoga qarshi hind shoiri Rabindranat Tag'o'ring qarashlari bilan bir nuqtaga kelib birikadur.

Ushbu gaplarga qo'shilgan holda, Fitratda Maxatma Gandi, Muhammad Iqboldan tam bahramandlik bor edi, deyish lozim bo'ladi. Fitrat Maskvadalik davrida avvalgi asarlarida mutloqo o'xshamagan, yangicha ramziy-mifologik usuldagi «Shaytonning tangriga isyoni» nomli she'riy dramasini 1923 yilda yaratadi. Oktyabrning oqibatlarini, yo'qsillikni ilohiylashtirish fojiasini o'ziga xos yo'sinda ifodalab bergan bir asardir. Odam yo'qdan bor qilindi. (Sharqda proletariat yo'q edi). Xalifa deb e'lon qilinadi. (Unga cheksiz huquq berildi). Lekin unga hech kim itoat etmadi. Oxir-oqibatda dunyo Yaratganning amri bilan azalga qaytdi. Uning «Abulfayzxon» fojiasi o'zbek adabiyoti tarixida katta voqea bo'ldi. Muallif bu asarni «Buxoro o'lkasining tarixidan olingan

bash pardali fojia» deb ataladi¹. Fojia, ya'ni tragediya Aristotelning fikricha, to'rt xil bo'ladi: 1) murakkab to'qimali tragediya, 2) iztiroblar tragediyasi, 3) xarakterlar tragediyasi, 4) ajoyibotlar tragediyasi². “Abulfayzxon”ning mazmuni va mundarijasi bilan tanishgan kitobxon uning “murakkab to'qimali tragediya” ekaniga ishonish hosil qilishi mumkin. Chunki bu asarda hamma narsa keskin o'zgarish va yevrishlarga asoslanadi.

Asar Maskvada 1924-yil “Markaziy sharq” nashiriyotida bosmadan chiqdi. Asarning qayta nashri bu asar yaratilgandan 65-yil keyin amalga oshirildi, shunga qaramay u o'zbek fojiansozligining eng yuqori nuqtalaridan biri sifatida talqin yetilmoqda. “Abulfayzxon”ning Fitrat qalamiga mansub oldingi sahna asarlaridan farqi shundaki, unda ifodalangan voqealarda ma'lum umumlashma, realistik ruh, o'tmish hayotiga, xonlik tartiblariga nisbatan tanqidiy qarashlar mavjudligidadir. Abulfayzxon 1711-1747-yillari Buxoro taxtining egasi bo'lgan ashtarxoniylar sulolasiga mansub hukmdorlardan.

Uning uquvsizligi, maishatni mansabdorlik mas'uliyatidan yuqori bilishi va atrofidagi xoin amaldorlariga ishonishi natijasida mamlakat fojiaga yuz tutdi.

Hokimyatdagi boshboshdokliklardan foydalangan Eron hukmdori Nodirshoh Buxoro xonligini jangsiz qo'lga kiritadi va bu ishda unga ko'maklashgan Rahimboy otaliqni Abulfayzxon o'rniga xon qilib ko'taradi. Rahimboy otaliq vazifasida tursa ham xon avlodidan

¹ Fitrat Tanlarga asarlari. 1-jild. – Toshkent. Ma'naviyat, 2000. – B.45.

² Arastu. Poetika. Axloq kabir. – Toshkent Yangi asr avlodi, 2004. – B. 45-46.

emas, shaxsiy qobiliyati bilan ham xonlikka nomunosib kishi edi. Shuning uchun ham buxoro xonligi Rahimboy idora qilgan davrdan boshlab amirlik deb yuritila boshlandi. Fitratning “Abulfayzxon” asari boshqa dramatik asarlar kabi remarkadan boshlanadi: Kecha Buxoro arkinda Abulfayzxonning uy shohona to‘shali bezangan. O‘rtada osilgan muhtasham “Chil chirog‘”ning butun shamlari yonib turadi. Uyning o‘rtasida kichkina kursichaning ustindagi shamdonchada yonib turgan shamning oydinligi ostida Ulfat xo‘jasaro, Mir Vafo ham Qozi Nizom taxta (shaxmat) o‘ynab turardilar. Tashqarida chalinib turgan cholg‘ular bir ozdan keyin sekinlashar so‘ngra bitar. Fitratning asaridan maqsad Buxoro xonligining fojiasini ko‘rsatishgina emas, balki davlat boshliqlarining ham uquvsizligiga e‘tibor qaratish edi. Muallif remarka orqali “Davlat to‘qsoba chog‘ir bilan piyolalarni kirgizadi. Ketidan uch tanburchi, bir rubobchi, ikki naycha, bir dafchi, bir-da o‘yinchi qiz kirarlar. Hammalari o‘turgach, bazm boshlanardi. Davlat uch piyoladan chog‘ir tarqatardi, bazm tugagach, o‘yinchi, cholg‘uchilar qulluqlab chiqarlar. Ulfat piyolalarni chiqarar (185-bet) deb xabar beradi. Birinchi parda shuning bilan tugaydi, bu pardada biz asar bosh qahramoni Abulfayzxonni uch holatda ko‘ramiz.

1. Davlat ishida. Bu paytda u o‘zi yoqtirmagan, mustaqil amaldorlarni o‘ldirtirib, o‘rniga sodiq qullarni amalga tayinlaydi.
2. Maishat holatida: bazmi jamshid qilib hordiq chiqaradi.
3. uyquda, tushida nohaq qatl qildirilganlar xonga qarshi birlashayotganga o‘xshaydi.

Har uchala holat xonga xush kelmaydi. Buning sababi uning kayfiyati yoki xarakterida emas, balki behuda to‘kilgan qonlarning xunida. Davlat ishida ham hadik, imkon qadar o‘z jinoyatining ishtirokchilarini yo‘q qilish payida. Maishat paytida ham ko‘ngliga qil sig‘maydi. Hatto sozandalar unga orom berish uchun “Husayniy” kuyini chalganlarida ham bu musiqa unga orom bag‘ishlash o‘rniga uning bosinqirashiga sabab bo‘ladi. Natijada o‘ngida ham tushida ham tinchlik yo‘q.

3.2. Fitratning «Abulfayzxon» fojiasida badiiy vaqt talqini

Fitrat dramalari orasida alohida o‘rinlardan birini “Abulfayzxon” egallaydi. “Abulfayzxon” janriga ko‘ra – tarixiy fojia. Mazmun – mundarijasiga ko‘ra ko‘hna Buxoro tarixidagi g‘oyat mas‘uliyatli va murakkab davrlardan birini qalamga olgan. Bu ashtarxoniylar sulolasining oradan ko‘tarilib o‘rniga mang‘itlar saltanatining kelishidir. Drama bir qadar o‘rganilgan, u haqida qator maqolalar yozilgan, dissertatsiya yoqlangan¹. Asar o‘rta maktab darsligiga kiritilgan va h.k.

Ashtarxoniylar sulolasining so‘ngi hukmdori bo‘lgan Abulfayzxon (1711-1747) shaxsi boshqalaridan ko‘p-da farq qilgan emas. Lekin u yurt so‘ragan XVIII asarning birinchi yarmidagi tarixiy, siyosiy sharoit juda murakkab bo‘lganligi aniq. Gap shundaki, saltanatda Muhammadhakim (pyesada Hakimbiy) bosh mang‘itlar nufuzi benihoya ortib ketgan edi. Ikkinchisi tomondan esa, joriy an‘anaga ko‘ra ashtarxoniylardan boshqani xon ko‘tarish mumkin bo‘lganligi tufayli mang‘itlar o‘z vakillarini taxtga o‘tqaza olmas edilar. Shu sababli, Abulfayzxon nomigagina xon bo‘lib, hamma ishlar mang‘it Muhammadhakim izmida edi. Muhammadhakim, so‘ngroq uning o‘rnini egallagan o‘g‘li Muhammadrahim (dramada Rahimbiy) barcha ishlarni Abulfayzxon orqali amalga oshirar, shu jumladan, saltanat yo‘lidagi dushmanlarini xon qo‘li bilan o‘rtadan ko‘tarar edilar. Bunday qo‘sh hokimiyatchilik birgina saroy darasida emas, sipohlar orasida ham ikkiyuzlamachilikka keng yo‘l ochgan edi.

¹ I.G‘aniyev. Masterstvo Abdurauf Fitrat tragediyasi “Abulfayzxon” AKD Toshkent 1992

Fitrat mana shu tarixiy voqeyelikning mazmun-mohiyatini konkret obrazlar xatti-harakati va taqdirlar misolida qayta jonlantirishga va ulardan zamon uchun kerakli xulosalar chiqarishga muvaffoq bo‘ladi.

Tarixiy voqealarni kuzatishda davom etamiz: Muhammadhakim xon saroyidagi mavqyeiga qanoat qilmaydi. Xiyonatga o‘tadi. Movoraunnahrni qoralab kelayotgan Nodirshoh istiqboliga chiqadi. Uning xizmatiga kirib, nomidan elchi bo‘lib keladi. 1216-1217-yillardagi xorazmlik Mahmud Yalavochning ishini qiladi. Tarix kitoblarida bu hodisaning ayrim tafsilotlari ham saqlangan. Chunonchi Abulfayzxon Muhammadhakim qo‘liga ko‘pdan-ko‘p sovg‘a-salom tutqazib, unga Nodirshoh bilan sulh tuzish yurtni shu yo‘l bilan talon-tarojdan saqlash choralarini ko‘rishni topshirgan.

Muhammadhakim esa aksincha, o‘z mamlakatining nochor ahvolini, nuqsonlarini keragidan ham oshirib, Nodirshohga sadoqat izhor etgan. Shohdan katta vakolatlari yorliqlar olib, -Buxoroga kirib borgan. To‘g‘ri saroyga kirib borishdan cho‘chigan, Mir Arab madrasasiga tushgan. Ko‘cha va bozorlarga jarchi chiqarib qo‘rquv-vahima tarqatgan. Eron shohi sonsiz-sanoqsiz qo‘shin tortib kelayotganini, molu jonining bexatarligini o‘ylagan har bir kishi uning huzuriga kelishini ayttingan. Madrasaga odam yog‘ilgandan-yog‘ilavergan. Nodirshoh Abulfayzxon va xiyonatchi Muhammadhakim otaliq Buxorodan tashqarida Zarafshon daryosining qirg‘og‘ida mashhur Chorbakr mavzeida uchrashadilar. Oldin Abulfayzxon (1747), bir yil o‘tar-o‘tmas o‘g‘illaridan Abdulmoninxon, so‘ng Ubaydullaxon birin-кетин qatl qilinadilar. Nihoyat Muhammadrahim 1753 yilda amir unvoni

bilan Buxoro taxtiga chiqadi. Farg‘onada minglar ajrab chiqadilar va mustaqil Qo‘qon xonligini maydonga keltiradilar. Buxoroda Muhammadrahim bilan mang‘itlar sulolasi hokimiyat tepasiga keladi va u 1920 yil Buxoro inqilobiga qadar hukmronlik qildi.

Fitrat nega Abulfayzxon tarixiga murojat etdi. XIX asrning 20-yillaridagi shiddatli inqilobiy jarayon bilan olis tarixdagi sulolalar kurashining bir-biriga qanday yaqinligi bor.

Avvalo, har ikki tarix ham xalqimiz hayotidagi eng mas’uliyatli, eng hayajonli voqealarga to‘la edi. To‘g‘ri, biri yangi turmush bayrog‘i ostida ikkinchisi yangi sulola himoyasi yo‘lida kechdi. Lekin bir-birini inkor etuvchi ikki holat-mamlakatning mustaqilligi va hokimiyat uchun kurash ham ikkisi uchun ham xos bo‘lib, ularning biri birlashishga undasa, ikkinchisi bo‘linishni taqozo etardi. Har ikkisi ham jamiyatning barcha qatlamlarini o‘ziga jalb etgan va eng muhimi, har ikkisi ham kuchga zo‘ravonlikka suyangani edi. Bunday damlarda inson tabiatidagi ezgulik bilan yovuzlik yuzaga qalqib chiqadi. Fitrat shularni ilg‘or oldi. “Podsholik qon bilan sug‘orilaturg‘on bir “og‘och (daraxt)” ekanligini, “qon oqib turmag‘on yerda bu yog‘ochning qurub qolishi aniq”ligini ko‘rsatib bera oldi. Fitrat uchun XVIII asr Buxoroda yuz bergan vaqtlar shunchaki ma’lumot uchun emas, ma’rifat uchun ham kerak edi. Shu tariqa adib, bir qaraganda inqilobiy voqealardan uzoq tuyulgan Abulfayzxon fojiasini zamonasiga xizmat ettira oldi. Uningcha, kishilar taqdiriga, ijtimoiy turmushga daxldor ham qanday ish ming o‘lchab bir kesilshi lozim. Inson manfaatiga doir muhim masalalardan edi.

Asardagi quyidagi vaziyatga e'tibor qilaylik: buxoro xoni Abulfayzxonning ko'ngli xufton. Eron shohi Nodir afshor katta qo'shin bilan Buxoroga tobora yaqinlashib keladi. Atrofdagilarga esa ishonch yo'q. Kimga suyanish mumkin? Taroziining posangisiga qarab qadam tashlaydigan qozikalon Qozi Nizomgami, xonning har bir qadamini zimdan kuzatib Hakimbiyga yetkazib turuvchi Mir Vafogami? Bu qanday saltanatki, egasining o'z haddidan chiqib biror ish qilmoqqa ixtiyori bo'lmasa. Hakimbiy-quv. Hammayoqda shuning odamlari. Farhod otaliq bilan Ibrohim kenagas ham uning oldidan o'tib, bir ish qila olmaydilar. U bo'lsa, xon nomidagi bir qo'g'irchoq, xolos. Yaxshiyamki, uning yonida bir vaqtlar otasi sotib olgan ikki quli-Davlat bilan ulfat bor. Shulargagina ishonmoq mumkin. U taxtni egallash uchun nimalar qilmadi.

O'rta Qur'on qo'yib "ahdpaymon" bog'lagan qanchadan-qancha do'stlarining boshini kesdirdi. Hatto o'z akasini o'ldirdi. Bugun esa unga murabbiylik qilgan Farhod otaliqni novvosdek bo'g'izlatdi. O'rniga Ibrohim kenagasni otaliq tayin etdi. Ulfat bu otaliqning ham "to'g'riliq"ini xushlamayroq turibdi. Bu ham Farhod otaliqning izidan boradiganga o'xshaydi...

Bu o'ylar xonning xayolini iskanjaga oladi. Atrof-muhit, davlatxohlikning gayriinsoniy qoidalari, aslida, uning diydasi allaqachon ko'r qilgan, yuragi tosh-metin. Shuning o'zi insonlikka jabr zulm. Negaki shunday barkamol vujudning eng mumtoz tuyg'usi paymol bo'lgan. Shunda ham bu g'ayriinsoniy yovuzliklar xon ongining qay bir puchmoqlaridan sezdirmay sizib chiqadida, qiyin-qistoqqa oladi.

Inson tabiati – shunday. Abulfayzxon kechalari uxlay olmaydi. Qatl ettirgan akasi va do‘stlari, murabbiysi xayoli xonni kechayu kunduz ta’qib yetadi...

Kishining o‘ziga o‘zi qiladigan bundan ortiq zulmi bormi?!

“Hayratul-abror”ning uchunchi maqolotidagi “Salotin bobida...” shunday fikr bor: “Eh vohki, - deydi shoir shohga qarata”, - baxt sening qo‘lingni quvvatli qilgan edi, lekin sen uni zulmatga qaratding.

Zulmning xaloyiqqa ham emas edi, ammo sen uni o‘zingga ham qilayotirsan. Zulm o‘zing uchun ham buzug‘liq-qu, yey hushyor odam, agar hushing joyida bo‘lsa, uni bas qil!”

G‘arb va Sharqning birday bilgan akademik N.I.Konrad ulug‘ shoirimizning ushbu sartlarini tahlil etar ekan, “Bunday teran fikr kishini hayratga soladi. Va bunday buyuk insoniy donishmandlikka duch kelganingda, yuraging zavq-shavqqa to‘ladi”, - deb yozadi.

Fitrat inson ruhiyatidagi mana shu nozik nuqtani ilg‘ay olgan va asarning o‘q tomiriga aylantirgan edi.

Pyesa matnida ayrim holatlar ifodasi personajlarning xatti-harakatlari, so‘zlari musiqa bilan kuchaytirilishi lozimligi haqida so‘zlar, ishoralar bor. Ular goho bevosita asar qahramonlari, ba‘zan esa muallif tilidan beriladi. Spektaklda bu masalaga ma’lum e’tibor qaratilganligi kishini quvontiradi. Qolaversa, Fitrat qadim an’anamizga ko‘ra har bir ziyoli singari musiqaning ham nazariya, ham amaliyoti bilan bevosita shug‘ullangan, 15 ga yaqin o‘zbek cholg‘usi bilan 300 dan ortiq o‘zbek kuyining sirsinoatidan va ayniqsa, uning inson ruhiyatiga ta’siridan yaxshigina xabardor adiblarimizdan edi.

«O‘zbek musiqasi to‘g‘risida» (1928) nomli bir musiqasi shunday boshlanardi: «Biz, o‘zbeklar, o‘zimizning musiqamiz judayam boy ekani to‘g‘risida ko‘p gapirdik, ham gapirib turamiz. Bu ishimiz yomon emas, albata. U bir musiqaki, yolg‘iz o‘zining qismida 300 dan ortiq kuy saqlangan. Bir musiqaki, bugun o‘n beshga yaqin cholg‘uning egasidir»

Dramaning muvaffaqiyotini ta‘min etgan narsa muallifning tarix falsafasini anglaganida, davr voqealari va turmushi manzaralarini nozik his qilishida, ota-bobolarimizning maishiy hayoti tavsilotlarini yaxshi bilishida, nihoyat, badiiy zehniyatida edi.

O‘zbek dramalarida ham makon va zamon munosabati o‘z o‘rniga ega. Manna shu makon va zamon o‘z-o‘zicha emas, balki unda qandaydir voqea ro‘y berishi bilan qimmatlidir. Adabiyotshunos I.g‘aniyev Fitratning «Abulfayzxon» asari badiiy makon va zamonning tarixiy makon va zamondan farqli tomonlarini o‘rganishda qulay material berishi mumkin deb o‘ylagan va muallifning o‘zi ham bu muammoni o‘rganishni fitratshunoslar orasida birinchilardan bo‘lib boshlab bergan edi.

Asardagi ayrim talqinlarga e‘tibor beraylik:

Zamon haqidagi xonning fikrlarini kuzatganda, uning xarakteri yanada izchilroq ochila boradi. Xon: Yaxshikim, bularning o‘limi qo‘limizdadir. Yo‘qsa o‘z zamondoshini eshak qilib minmak istaydilar (187-bet). Yana zamon so‘zi orqali kelajakka murojat qilinayotgan fikrlarga e‘tibor beraylik:

Hakimbiy: bu pilonlarning zamoni o‘tgan endi (189-bet). Zamon so‘zi bu yerda o‘tmishni bildiriyapti. Qahramonlarning yuqoridagilardan

tashqari o‘zaro suhbatlarida ham bu kun, shu kundan boshlab, shu tobda degan so‘zlarni ko‘p ko‘rishimiz mumkin.

Demak, dramada vaqtning ifodalanishi dialog va monologlardagi eslatmalardan kelib chiqqan holda ham aniqlanishi mumkin. Bu jihatdan adibning o‘zi ham «yordam berib» ham bir ko‘rinishdan keyin o‘tgan vaqtga daxldor eslatma beradi. Agar zamon masofasi qancha uzoq bo‘lsa, ham pardada vaqtning miqdori berilishi badiiy vaqt tahlili jarayonini engillashtirishi mumkin. Fitratning «Abulfayzxon» dramasida voqealarning tarixiy va xronologik davomiyligini M.Bargning Shekspir haqidagi talqinlariga suyangan holda quyidagicha belgilash mumkin bo‘ladi:

1-parda

Tarixiy vaqt

1739-yil

Sahna vaqti

1-kun

2-parda 1740-yil 1 kechayu, 1 kunduz

3-parda 1740-yil 1 kun

4-parda 1747-yil 1 kun

5-parda 1747-yil 1 kun

«Abulfayzxon» asarida ham xudi «Richard III» xronikasida kuzatilganidek, vaqt va zamon bir butunlikda namoyon bo‘ladi. Har ikki asar voqealarida o‘tmish ham, bugungi kun ham, kelajak ham yashaydi. O‘tmish hikoya, qohira shaklida aks etgan bo‘lsa, bugun har bir qahramonning harakatida sodir bo‘ladi. Kelajak esa tush epizodlari

orqali bashorat shaklida ro'y berayotgan voqealarda o'z aksini topishi mumkin. «Richard III» asarida uch qahramonning tushi aks etgan edi. Klarens tushi ertaga sodir bo'lajak voqealar bashorati tarzida asarga kiritilgan bo'lsa, Richard bilan Richardning bir xil tush ko'rishi orqali buyuk Shekspir kelajakda bo'ladigan voqealarni oldindan eslatmoqchi, shu bilan birga, u kelajakga umidvor nigoh bilan qarashini ham ma'lum qilgan edi. Demak, fojiada aks ettirilgan zamon, garchi u XVIII asrning o'rtalarida sodir etilgan bo'lsa ham, ma'no mantiq jihatidan hamma davrlarga tegishli edi. Dramatik asarda vaqt konsepsiyasi vositasida garchi u muayyan davr voqealarini aks ettirgan bo'lsa ham, bu qisqa sahna vaqti adabiy muommolar haqida bahs yuritishi mumkinligini anglatadi. Fitrat ikki soat davom etgan «o'n yillik tarix» voqealari millatning kelajagi uchun shunday asqotarli xulosa qila oldi.

Ushbu asadagi voqealar faqatgina fakt va xabar tariqasida emas, balki diolog monolog, epizod, sahna va ko'rinish talqinida o'quvchiga yetkazilgani bilan qimmatlidir. «Abulfayzxon» fojiasidagi yozuvchi mahorati drama pardalari o'rtasidagi vaqtning oralig'i yillar bo'lgani bilan uzluksizday ko'ringanligiday yaqqol sezilib turadi. Zamon o'zgarishi bilan makon ham o'zgaradi. Asar qahramonlarining harakati va suhbatlari bunga yaqqol dalil bo'ladi.

Xulosa

Badiiy vaqt odatda asar personajining xatti-harakati, uning xarakteri va kayfiyati, portreti hamda asar syujet va kompozitsiyasi orqali yuzaga chiqdi. Badiiy vaqt bilan real (astronomik) vaqtni taqqoslaganda, badiiy vaqtning estetik kategoriya sifatida xususiyatlarini chuqurroq tasavvur qilishimiz mumkin. Badiiy vaqt matning ahamiyatli muhim kategoriyasi sifatida asar ichki to'qimasi bilan bog'liq holda murakkab davomiylikga ega bo'lgan davr zamon va muddat tushunchalarini anglatadi. Badiiy vaqt dramada makon, zamon, harakat birligi tizimida ishtirok etadi. Konseptual vaqt asar voqealarining ob'ektiv reallikdagi foni, tashqi borliqning madeli tarzida namoyon bo'lsa, epik vaqt manbalarda syujet vaqti (ayrimlarida fabula vaqti) deb yuritiladi va tarixiy, biografik, tabiiy, sotsial-maishiy, sarguzasht xarakteridagi voqealarni tasvirlash davri yoki zamonidan iborat. Rerseptual vaqt esa peuzaj–qahramonlar kayfiyatiga uyg'unlik, hayvonlar va narsa – predmetlarning obraz sifatidagi ishtiroki reallashadi.

Ayrim manbalarda syujet vaqti birikmasi ham qo'llanilgan. Olimlarning talqinicha, syujet vaqti asar voqealarining davomiyligini aks ettiruvchi vaqt birligi bo'lib, asasiy voqealar tizimi mana shu syujet vaqtini tashkil qiladi. «Muallif vaqti» (avtorskol vremya) tushunchasi ham mavjudki, muallifning asarda ishtirok etish (avtor obrazi sifatida) vaqtiga hamda qahramonlarga munosabati aks etgan o'rinlarga nisbatan qo'llaniladi. Vaquea davomida o'tgan kuni tunlar, soatu daiqalar hisobga kirgizilgan yunon romanlarida barcha voqealar na tarixiy vaqtga va na

biografik vaqtga to'g'ri keladi. Bunday bo'm-bo'sh vaqt izidan keyin iz ham qoldirmaydi va bunday vaqt adabiyotshunoslikda avantiyuz, ya'ni tavakkal vaqt deb yuritiladi. Bunday vaqtdagi tasvirda yuqorida tilga olingan xususiyatlardan tashqari voqealarning ko'pi tosodifiy holatlarda bo'ladi.

O'rta asrlarda va uyg'onish davri ritsarlik romanlarini o'rgangan tadqiqotchilar mo'jizaviy vaqt tushunchasini ham qo'llaydilar. Bunday vaqt birligida xudi folklordagiday mubolag'a, mo'jiza tufayli real yoki tarixiy vaqtda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar ritsarlik romanlarida «bir zumda, bir soniyada» yuz berishi mumkin. Bu holda, albatta badiiy vaqt davomiyligini to'ldiradi. Adabiyotshunoslikda xotira vaqti tushunchasi ham yuzaga kelgan. Bunda qahramon xotirasi uning shu kundagi turmushi bilan bog'liq holda tasvirlangani uchun xotira vaqti syujet vaqtidan tashqarida ko'rilmaydi, balki uning xotirida keltirilgan voqealar bayoni syujet elementlari sifatida tasvirda saqlangani uchun ham xotira vaqti syujet vaqtining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Vaqt bilan bir qatorda makon ham asar davomida o'zgarib boradi.

Chunki zamonning o'zgarishi makonga ham o'z ta'sirini ko'rsatib boradi, ana o'sha bog'liqlik ilmiy adabiyotda xronotop deb yuritiladi. Badiiy asarda o'zlashtirilgan vaqt bilan makon munosabatlari o'zaro aloqadorlikda mavjud bo'lib, makon va vaqtning ajralmagan holda ifodalanishi hisoblanadi (vaqt makonning to'rtinchi o'lchovi sifatida). Dramaning badiiy adabiyotning boshqa turlaridan farqi shundaki, unda butun bir ommoga murojaat etiladi va undan olinadigan taassurot barcha

tomoshabinlarda bir paytda sodir bo'лади. Agar kitobxonga biror bir asar yoqmasa, uni chetga surib o'sha zahoti boshqasini tanlash uning ixtiyorida. Dramada esa bu holat boshqacharoq kechadi, albatta, tomoshabin sahna asaridan qo'l siltab voz kechishi mumkin, lekin o'sha joyning o'zida va faqat o'sha paytda asar jonli ravishda uning hukmiga havola etiladi. Dramatik asardagi jismoniy vaqt va voqeaning mo'ljallangan vaqti, ya'ni tarixiy vaqtning harakati-barchasi badiiy vaqt doirasiga kirib ketadi. Zamonaviy dramaturgiyada ham klassizizm davrining uch birlik (makon, zamon va harakat birligi) qoidalaridan tashqaridan makon va zamon nuqtai nazaridan alohida adabiy kategoriyalar belgilanmaydi. XX asr boshlarida antik dramaturgiya, uyg'onish va klassizm davri dramasiga yangicha munosabat shakllana boshladi va shu munosabat shakllana boshladi vash u munosabat bilan barcha nazariy kategoriyalar qayta ko'rib chiqish asnosida vaqt katigoriyasiga yendi dramadagi uch birlikning biri sifatida emas, balki makon, zamon va harakatning yaxlit o'lchovi sifatida qaraladigan bo'ldi. Dramadagi badiiy vaqtning xuddi tarixiy vaqt singari qonun-qoidalari mavjud. Dramaturg tomonidan yaratilgan vaqt o'lchovsiz hisoblanib, har bir sahna, har bir epizod o'zining mazmuni, ma'nosi makoni jihatidan badiiy ahamiyat kasb etadi. Dramatik vaqt ortga qaytmaydi, lekin dramaturg muxlisni ham qanday tarixiy davr kechinmalarini xuddi hozir sodir bo'layotganday qilib aks yettirib berishi kerak bo'лади. Shekspir drama (xronika)larida vaqt xuddi tarixdagidek muayyan davriy ketma-ketlikda o'z aksini topgan. Vaqt taqsimotida muallif uchun muhim sanalgan voqealar, ya'ni syujet vaqti va uning sahnada tomoshabinlar

ushbu dramani ko'rish uchun sarflangan vaqtiga nisbati asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Umuman, dramada tasvirlangan voqealar, unda qahramonlar hayotining o'zgarishi, bir avlodning o'tishi va yangi avlodning sahnaga kelishi, zamondagi o'zgarishlar, makoniy o'zgarishlar, ya'ni shahar va qishloqlarning qurilishi yoki obod bo'lishi, buzilishi yoki batamom yo'qolishi kabi hodisalar tarixiy haqiqatligicha qolaveradi. Badiiy haqiqat esa dramaturgning o'zi tanlab olgan syujet vaqti davomida kechgan voqealar orqali tomoshabinga yetkaziladi. Badiiy zamon va badiiy makonni aks ettirishda bu asar boshqa dramatik asarlardan keskin ajralib turadi. Fitrat dramalarining alohida fazilatlaridan biri-ichki maromning mavjudligi, zamon o'zgarishi bilan makonning, shu makonda kechayotgan voqealarning ham shiddat bilan o'zgarishi, rivojlanishi, harakterlarning rivojlanib borishidir. Shekspir tarixiy xronikalarida qahramonlari nomidan gapirmaydi. Balki tarixni so'zlaydi. Shuning uchun bosh qahramon shahs emas, balki voqea tarzida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan nafaqat fojiadagi obrazlarga, balki tarixiy xronikalardagi qahramonlarga murojaat etish mumkin. Shekspir o'z asarini garchi tarixiy xronika deb atagani bilan, ular xronologik ketma-ketlikda, ya'ni kun, oy, yil davomidagi voqealar sifatida emas, balki qurollik tarixidan saylab olingan alohida voqealar tarzida namoyon bo'ladi. "Genrix VI"dan boshlangan tarix "Genrix VIII" bilan tugatiladi. Undan so'ng "Rechard III", "Rechard II", "Qurol Ioan" va "Genrix IV", "Genrix V" larning ikki qismlari bilan tugaydi. Bu asarlarni tarix davr tartibida emas, yozilish tartibida ko'rib chiqish ko'zlangan maqsadga erishishga yordam beradi.

Shekspir uchun xronikalar ma'lum g'oyani ochiqdan – ochiq targ'ib etuvchi janrdir. Shekspir o'z zamondoshlaridan ajralib qolmadi, aksincha xronikalarning siyosiy yo'nalishini yanada keskinlashtirdi va realistik metod tufayli qahramonlar psixologiyasini to'g'ri tasvirlash, ularni xarakatga keltiruvchi kurashga rag'bartiruvchi kuch nimalardan iborat ekanligini ochib berish bilan bu janrni boyitdi. Hamma xronikalar qirollar nomi bilan atalgan va ulardagi voqea ana shu qirol hukmronlik qilgan davrni tasvirlaydi. Shekspir o'z xronikalarida olti qirol portretini yaratgan. Har qaysi xronika qirol obrazi va xarakterini ochish bilan bog'langan bo'lsa-da, dramaturgning maqsadi qirolni ulug'lash emas, balki u qirol davlatni idora etishga loyiqmi, yo'qmi degan masalani hol etish edi. "Rechard III" asari dramaturg mahoratining ulg'ayishida bir qadam olg'a bosish bo'ldi, pyesa kompozitsiya jihatidan xronikadan ko'ra fojialarga yaqin turadi va Shekspirning kelajakda yaratilajak buyuk fojialari bilan ijodining ilk davrida yaratilgan xronikalarini mantiqan bir-biriga ulaydii. Agar trilogiya pyesalarida dramaturg diqqat markazida davrning shiddatli voqealari tursa, "Rechard III"da personaj qismati turadi. Pyesada mamlakat taqdiri uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan voqealar bosh qahramon atrofida ro'y beradi. Asar garchi optimistik ruhda yakunlansa-da, janr jihatidan fojiaga yaqin va Shekspirning shoh asarlaridan biri sifatida ko'rinadi. Shekspir dramasi uchun vaqt asosiy qahramonlardan biriga aylanadi, u O'tmish, Bugun va Kelajak shaklidagina emas Xotira vaqti deya ta'riflangan tush vaqti ham asar qahramonlaridan biriga aylanadi. Dastlab Klarensning tushi, so'ngra Rechard va Richmondning bir paytda ko'rgan tushlari

vositasida adib ularni arvohlar bilan uchrashtiradi. Kelajakni bashorat qilmoqchi bo'lgan bu ramziy obrazlar Rechardga o'lim, Richmondga esa g'alaba tilaydilar. Shekspir tush vaqti orqali badiiy vaqtning poetik imkoniyatlaridan foydalanib, bugun va kelajakni bir paytda yuzlashtiradi, bugunning zulmi, kelajak umidi uni erkinlik bilan asarni nihoyalashga olib keladi. Dramadagi har bir voqeadan so'ng o'tgan zimmasiga oladi. Asardagi nafaqat qahramon, balki kalendar vaqtning o'lchovlari ham badiiy vaqtni ifodalashga xizmat qiladi.

XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlarida Turkistonda mustamlakachilik siyosati va xurofotning qora kuchlari jamiyatning intilishlariga qarshi chiqishlariga qaramasdan yangicha ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlarning qaror topa boshlagani jamiyat hayotini tubdan isloh etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Tarixdan Abulfayzxon qismati birgina ashtarxoniylar sulolasining fojiasi emas, balki Fitratning nazarida millat fojiasi darajasiga ko'tarilgan. Muallif xonning tilidan “besh daqiqa” deyish bilan uning topshirig'ini tezda bajarish lozimligini uqtirgandi. Bu zamonaviy tushunchalar garchi fursat yoki muddatni ifodalagani bilan ular syujet vaqti tarkibiga kiruvchi elementlardir. Ehtimol, birinchisini, syujet tarkibidagi elementlardan kelib chiqib, “ekspozitsiya” vaqti deb atarmiz. Chunki bu vaqt birligi syujet rivojidadagi keyingi voqealarning taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Fojiada real voqealar nisbatida berilayotgan makon va zamon munosabatidan tashqari har bir qag'ramon alohida bir timsol. U nafaqat o'ziga o'xshagan shahslarning poetik umumlashmasi, balki ramziylik tashuvchi timsol sifatida ham ko'rinadi. Abulfayzxon tomonidan

o'ldirilgan akasi xon – mamlakat timsoli. Mamlakatning boshqaruvchisi xon o'z fuqorolariga nisbatan mehribon bo'lishi kerak. O'z fuqorolarini (ayniqsa, ongli ziyolilarni

Ehtiyot qilishi kerak. Bosh qahramon Abulfayzxon uch holat tasviri: davlat ishida, bu paytda u o'zi yoqtirmagan, mustaqil amaldorlarni o'ldirtirib, o'rniga sodiq qullarini amalga tayinlaydi. 1) maishat holatida: bazmi jamshid qilib hordiq chiqaradi 2) Uyquda, tushida nohaq qatl qildirilganlar xonga qarshi birlashayotganga o'xshaydi: 3) Har uch holatda ham u mamlakat taqdiriga javobgarlikni sezmaydi, bunday rahbar boshqarayotgan mamlakat tanazzulga uchrashi mumkinligi dramaturg zamon ifodasida aks ettirgan.

Dramaturgning mahorati shundaki u birinchi pardadayoq o'z qahramonlarining asl basharasini ko'rsatib ulguradi. Ular asar davomida yolg'izgana o'z manfaati uchun kurashuvchi shaxs sifatida ko'rinadilar. Kuni mana shu xonu uning amir-amaldorlariga qolgan yurt tanazzulga uchraydi, millat shakllanib ulgurmay parchalanib bitadi. "Abulfayzxon"da ham "Richard III"ga o'xshash vaqt va makon bir butunlikda namoyon bo'ladi. Mana shu makon va zamon o'z-o'zicha emas, balki unda qandaydir voqea ro'y berishi bilan qimmatlidir. Voqyeani xarakatlantiruvchi kuch esa dramada qarama-qarshiliklar kurashi orqali ifodalangan. Asarda aks etgan "xronolog"ning muallif yashab o'tgan zamon va makonga munosabatini aniqlash uchun makon va zamon konsepsiyasini asar qahramonlarining o'zaro suhbat mazmunidan bilib olamiz.

Asardagi voqealar faqatgina fakt va xabar tariqasida emas, balki dialog, monolog, epizod, sahna va ko‘rinish talqinida o‘quvchiga yetkazilgani bilan qimmatlidir.

“Abulfayzxon” fojiasidagi yozuvchi mahorati drama pardalari o‘rtasidagi vaqtning oralig‘i yillar bo‘lgani bilan uzluksizday ko‘ringanligiday yaqqol sezilib turadi. Zamon o‘zgarishi bilan makon ham o‘zgaradi. Agar qahramonlarining harakati suhbatiga bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1997-yil.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrda intilmoqda. Toshkent. 1999-yil.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. O'zbekiston. 2008-yil
4. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. 1999 - yil.
5. Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1998 yil
6. Boltaboyev H. Professor Fitratning nazariy qo'llanmasi. (Adabiyot qoidolari). Toshkent, 1995-yil.
7. Fitrat A. Adabiyot qoidolari- T.: O'qituvchi, 1995 yil
8. Fitrat. Hind ixtilolchilari. "Sharq yulduzi", 1990, 4-son.
9. Fitrat. Turkistonda ruslar. "Sharq yulduzi", 1992.
10. Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik. T.: "Ma'naviyat", 2001.
11. Fitrat. Chin sevisht. T.: "Adabiyot va san'at", 1996.
12. Fitrat. Najot yo'li. T.: "Sharq", 2002.
13. Boltaboev H. Fitratning ilmiy merosi. T.: "Fan", 1996.
14. Boltaboev H. Fitrat - adabiyotshunos. T.: "Yozuvchi", 1996.
15. Qosimov B. Fitrat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1991, 10-son.
16. Erkinov S. Fitrat-navoiyshunos. O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 3-son, 3-bet.
17. Umarova M. Uyg'onish davrining ikki tarixiy dramasi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2003. – 4-son. –B.62-65.

18. Umarova M. Shekspirning “Richard III” dramasida tarixiy va badiiy vaqt // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2004. -1-son. – B. 49-51
19. Umarova M. Shekspir va Fitrat dramalarida vaqt konsepsiyasi // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2004. – 1-son. – B. 15-18.
20. Umarova M. Tarixiy dramada badiiy vaqt // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2004. – 6-son. – B. 56-58.
21. Umarova M. Fitratning “Abulfayzxon” fojiasida badiiy vaqt talqini // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2009. – 4-son. – B. 34-46.
22. Umarova M. Badiiy vaqt va uning adabiyotdagi mavjudlik shakllari // Toshkent – jahon hamjamiyati nigohida: o‘tmishda va hozir. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2009.- B. 140-142.
23. Umarova M. Fitrat dramalarida tarix va zamon talqini // “Yosh olim 2009”. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2009. – B. 117-119.
24. Umarova M. Shekspir dramalarida vaqt konsepsiyasi // O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – toshkent, 2010 – B. 138-144.